

THE IMPORTANCE OF EASTERN CIVILIZATION IN THE DEVELOPMENT OF THINKING

Polatov Anvar Akmal o'glu
National University of Uzbekistan
masters

Annotation: In the East, the scientific stability and instability in the development of thought is reflected in the exchange of ideas in the activities aimed at meeting the material and spiritual needs of the people. The political system and ideology of a society ensure the variability of human thinking. Therefore, man is the main driving force of society, and his thinking is the transforming force. In this context, this article reveals the importance of the formation of human thinking.

Keywords: Eastern philosophy, thinking, culture, spirituality, values,

TAFAKKUR RIVOJLANISHIDA SHARQ SIVILIZATSIYASINING AXAMIYATI

Polatov Anvar Akmal o'g'li
O'zbekiston Milliy Universiteti
magistranti

Annotatsiya. Sharqda tafakkur rivojidadagi ilmiy barqarorlik va beqarorlik g'oyalar almashinuvi odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirishga yo'nalgan faoliyatda o'z ifodasini topadi. Jamiyatning siyosiy tizimi va mafkurasi inson tafakkurining o'zgaruvchanligini ta'minlaydi. Shu bois, inson jamiyatni harakatga keltiruvchi bosh omil, uning tafakkuri esa, o'zgartiruvchi kuch sifatida amal qiladi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada inson tafakkurining shakllanishi ahamiyati ochib beriladi.

Tayanch so'zlar: Sharq falsafasi, tafakkur, madaniyat, ma'naviyat, qadriyat,

Insoniyat tafakkurining tarixi umuminsoniy, umumjahoniy, binobarin, azaliy va abadiy mavzulardandir. "Nur - sharqdan" deb aytilgan ekan qadim yunon naqlaridan birida. Bunda, albatta, olam-olam ma'no bor. Haqiqatdan ham quyosh sharqdan chiqadi. Aql quyoshi - ma'rifat ham Sharqda tug'ilib, g'arbga tomon yo'l olgan. Buning ajablanadigan joyi yo'q. Aslida ham shundayligi qator olimlar tomonidan ham isbotlangan. Bu qarash yerda hayotning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalarga ham zid emas. San'at va madaniyat dastlab Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Arabiston, Misr kabi o'lkalarda vujudga kelganligi bunga dalildir. Hazrat Abdurahmon Jomiy ham bir o'rinda, agar kishi boylik istasa Hindistonga borishini, poklanish va ma'rifat istasa Makkaga ziyorat qilishini, gar har ikkisini da'vo qilsa Samarqandda yashashini taklif qilganlar. Lekin gap shundaki, Sharq olamiga ziyo berib, uni go'zal etgan tafakkur tug'ilgan joyida qolib ketmadi. Umuminsoniyatning aql-shuuri, mushtarak mulki sifatida zamonlar osha g'arbga ham yetib bordi.

Adabiyot ilmi bilimdoni Najmiddin Komilovning ko'pchilik tadqiqotlarida mana shu olis madaniy va adabiy tarixning shiddatli, ayni paytda g'oyat muhim sahifalari qalamga olinadi. Olim bizning aslimizni tanitishga, u orqali o'zligimizni anglashga yordam beradi. Biz minglab millatlar orasidagi qadrimiz, o'rnimizdan voqif bo'lamiz. Buyuk ajdodlarimizni tanish, ular bilan iftixor etish, ularga munosib bo'lishdek shirin va yoqimli tuyg'ular vujudimizni qoplaydi. Ayni paytda insoniyat Borliqning yaktan, yakdil bir vujudi, yagona hokimi sifatida o'z-o'zini takomillashtirib borishga, dunyoni obod va farovon qilishga mahkum va mas'ul ekanligi ham anglashiladi.¹

1. ¹ I.A.Karimov, Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch, Toshkent, "Ma'naviyat", 2013.

Zero, muhtaram prezidentimiz takidlaganlaridek: “Inson o’zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg’usi ildiz otib, tug’ilib o’sgan yurtga ham muhabbat shu qadar yuksak bo’ladi”. Darvoqe, ustoz adabiyotshunos Najmiddin Komilovning “Tafakkur karvonlari” nomli kitobi ham o’zligimizni anglashga qaratilgan buyuk chorlov, ma’naviy obida desak adashmaymiz.

Ana shunday ma’naviy obida bunyodkori, bizning kim ekanligimizni tanitgan va butun umrini, kuchini, tafakkurini buyuk fidoyilik yo’liga baxshida etgan siymo Najmiddin Komilovdir.

Najmiddin Komilov 80-yillarning boshida Sharq va G’arb adabiy-madaniy aloqalari va o’zaro ta’sir masalalariga doir ketma-ket e’lon qilgan maqolalari bilan, ishning yuki va mas’uliyati benihoya kattaligi tufayli, ko’pchilik olimlar hali qo’l urolmagan yangi bir yo’nalishni adabiyotshunosligimizda boshlab berdi. Uning 1983- yilda chop ettirgan “Ibn Sino va Dante” kitobi fanimizda, mubolag’asiz kashfiyot bo’ldi. To’g’ri, o’rta asrlar Sharq ilm-fanining Yevropa Uyg’onish adabiyotiga, xususan, “Ilohiy komediya” (Dante) va “Dekameron” (Bokachcho)ga ta’siri, jumladan, har ikki asarning sharqiy manbalari haqida G’arbnig insofli olimlari e’tiroflari bor edi. Lekin, ulardan, birinchidan, xabardor kishilar juda oz edi. Va bu xabardor kishilarning aksariyati ushbu ma’lumotlarni ko’zdan nari saqlashdan manfaatdor kishilar edilar. Ikkinchidan, o’sha “e’tiroflarning o’zida ham haqiqat to’laligicha ochilgan emasdi. Najmiddin Komilov o’zbek adabiyotshunosligida birinchi bo’lib, mashhur “Ilohiy komediya”ni Ahmad Farg’oniy, Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd asarlari bilan har tomonlama qiyosiy o’rganib chiqdi, undagi g’oya va mazmunga emas, shakl va manbalarini ko’rsatib berdi.

Jumladan, olim o’z asarida quyidagilarni qayd etadi: “Sharqning ikki buyuk mutafakkiri - Ibn Sino va Ibn Rushd shoir salaflari majlisi - “bazzm”ning aziz mehmonlaridir. Dante Aflotunni faylasuf sifatida ulug’lab, uning asarlariga chuqur e’tiqod bilan qaraydi. Ammo barcha asarlarida ham yunon mutafakkiri yonida Ibn Sino va Ibn Rushd nomini sanaydi. Ularning asarlaridan iqtiboslar keltirib, boshqa olimlar bilan muqoyasa etadi.

Ibn Sino bilan Ibn Rushd nomlarining “Bazzm” va “Ilohiy komediya” asarida ham dunyo donishmandlari qatorida tilga olinishi bejiz emas. Avvalo Dante ularni, orada ming yillik masofa yotsa-da, masalak va dunyoqarashda Arastu ham Aflotunning sobitqadam izdoshlari, deb biladi. Bu davrda Ibn Sino bilan Ibn Rushd obro’si yevropada Arestotelnikidan kam emas, qolaversa, Arestotelning o’zini ham g’arbga, chin ma’noda, sharqlik ana shu ikki faylasuf tanishtirgan edilar. Shoir Ibn Sino bilan Ibn Rushdni “yangi kun g’oyalarini targ’ib etuvchilar” sifatida ulug’lar ekan, ayni so’z bilan ularning xizmatlari ta’kidlanib, o’tmish donishmandlaridan farqlari ham ko’rsatiladi... Shoir ulug’ hakimlar Ibn Sino va Ibn Rushdni o’zining birinchi darajali ustozlari qatoriga qo’shib, qo’llaridan ta’lim olgan, buyuk aql egalari ishtirokidagi tafakkur bazmi to’ridan ular uchun joy ajratgan. Shu o’rinda yana bir ramziylikni ham eslatib o’tish joizdir. Dante Ibn Sino va Ibn Rushd nomini ko’pincha yonma-yon tilga oladi. Biz ham shunday qildik. Zero, XII asrda Qurudobada yashagan Ibn Rushd (lotinlashgan nomi - Averroec) buxorolik alloma Ibn Sinoning sadoqatli shogirdi, uning falsafiy qarashlarini rivojlantirib, muxoliflar xurujidan himoya etgan buyuk faylasufdir”

Buyuk nemis shoiri I.Gyote Xoja Hofiz devonini Fon Hammer tarjimasida mutolaa etib, azbaroyi ta’sirlanganidan o’zini Sheroz bulbulining muridi, deb e’lon qiladi. U Hofiz o’raqali butun Sharqqa bir umr muhabbat bog’lab, “G’arbu Sharq devoni”ni bitadi. Bu devonida u bor ovozi bilan dunyo birligini kuylaydi:

Buzildi G’arb, Janub va Shimol,
Taxtu tojlar bo’ldi poymol.
Sen yiroqqa, Kunchiqarga bor,
Unda qo’shiq, sevgi bor, may bor.
U tabarruk havoni shimir,
Va boshlaginyangidan umr...

(“Hijron” she’ri, MaqsudShayxzoda tarjimasida).

Shoir Gyote nazdida Sharq she’riyati, Firdavsiy, Sa’diy, Hofiz, Rumi ijodi - “Xizr chashmasi” U hamisha musaffo va ravon, undan hayot nafasi ufurib turadi. Bu ruh va ijod manbai, sevgi va qo’shiq saltanati.

Yetuk olimlarning Sharq adabiyotiga qo’ygan e’tiqodi komparavist² adabiyotshunoslar yuzini ham Sharqqa o’girdi. Endilikda xolis niyatli olimlar “yevropasentriзм”ning g’ayriilmiy mohiyatini ochib tashlash

2. ² N.Komilov, Tafakkur karvonlari, Toshkent, “Sharq”, 2011.

bilan kompravistikaning ob'yektiv ilmiy xulosalarga asoslangan yangi metodini ham ishlab chiqdilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insoniyat jamiyati taraqqiyoti doimiy yangilanish, o'sishni boshdan kechirgan. Har bir madaniy ko'tarilish o'zigacha bo'lgan yutuqlarni jamlagan, boyitgan va yangi-yangi oqimlarni birlashtirib, olg'a siljishda davom etgan. Taraqqiyot tarixiga Sharq va G'arb xalqlari navbatma-navbat hissa qo'shib kelganlar. Jahon xalqlari orasidagi iqtisodiy ham madaniy aloqa tobora rivojlana borgan va u hozirgi paytda yangi kuch bilan mustahkamlanmoqda. Ammo bunda zamonlar o'tishi bilan adabiy-madaniy bog'lanishlar xarakteri, mazmuni o'zgarib turganligini esdan chiqarmasligimiz kerak. Jumladan o'rta asrlar madaniyatini yuksaltirishda Sharq yetakchi bo'lib, tashabbusni o'z qo'lida saqlagan ekan, keying davrga kelib, G'arb oldinga o'tib oldi.

Shunday qilib, Sharq G'arb adabiy-madaniy aloqalari juda kata davrni qamrab oluvchi ko'p tarmoqli sohadir. Talay tadqiqotlar bitilib, muhim muammolar yoritilgan bo'lsa-da, bu borada hali ham bir qadar hamda ayrim masalalar puxta o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotchilar umumiy masalalar ustida mulohaza yuritish bilan cheklanmoqdalar. Konkret davrlar, mamlakatlar, adabiyotlar, alohida yozuvchilar ijodi, muayyan asar ustida ana shu masala yuzasidan har taraflama teran olib borilgan tadqiqotlar benihoya kam, deb aytadi Najmiddin Komilov. Va ushbu kitobda olim Sharq va G'arb munosabatlarini davrlashtirish masalasini ham dolzarb vazifa sifatida e'tirof etdi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov, Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch, Toshkent, "Ma'naviyat", 2013.
2. N.Komilov, Tafakkur karvonlari, Toshkent, "Sharq", 2011.